



XIZMATLAR SOHASI

2018 yil yanvar-fevral

Raqamlar:


· 2018-yil yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 607,7 mlrd.so`mni tashkil etdi.

· Moliyaviy xizmatlar o`sinh sur`ati 127,0 % ni tashkil qildi.

“2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi” ni amalga oshirilishi natijasida, 2018-yil yanvar-fevralida bozor xizmatlari hajmi 607,7 mlrd.so`mni tashkil etib,o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 % ga o`sdi.

Moliyaviy faoliyatni takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, texnik hamda texnologik yangilashlar natijasida hisobot davrida eng yuqori o`sinh sur`atlariga moliyaviy xizmatlar bo`yicha 27,0 % ga; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo`yicha 14,7 % ga; yashash va ovqatlanish xizmatlari bo`yicha 11,3 % ga; ta`lim sohasidagi xizmatlar bo`yicha 67,9 % ga erishildi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar tarkibi, % da



- aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
- moliyaviy xizmatlar
- transport xizmatlari
- shu jumladan: avtotransport xizmatlari
- yashash va ovqatlanish xizmatlari
- savdo xizmatlari
- ko`chmas mulk bilan bog`liq xizmatlar
- ta`lim sohasidagi xizmatlar
- sog`liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
- ijara xizmatlari
- kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta`mirlash bo`yicha xizmatlar
- shaxsiy xizmatlar
- me`morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar
- boshqa xizmatlar

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 26,1 %), transport xizmatlari (26,1 %) shu jumladan: avtotransport xizmatlari (16,3 %), moliyaviy xizmatlar (12,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,3 %) hissasiga to`g`ri keldi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mln.so`m



Qoraqalpog`iston Respublikasida 2018 yil yanvar-fevral oylarida ko`rsatilgan umumiy xizmatlarning hajmi 607743,9 mln.so`mni tashkil etgan.

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (158699,7 mln.so`m), savdo xizmatlari (158447,7 mln.so`m), moliyaviy xizmatlar (73366,0 mln.so`m), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (50481,7 mln.so`m) bo`yicha kuzatildi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Eng yuqori o'sish sur'atlarini ta'lim sohasidagi xizmatlar (167,9 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (128,7 %); moliyaviy xizmatlar (127,0 %) tashkil etgan.

Ko'rsatilgan xizmatlarning eng past o'sish sur'atlarini transport xizmatlari (99,3 %); shaxsiy xizmatlar (100,2 %); savdo xizmatlari (100,3 %); kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (100,3 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmat turlari bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari (ming so'mda)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichlari transport xizmatlari 86,7 ming so'm; savdo xizmatlari 86,6 ming so'mni tashkil etgan.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining eng past ko'rsatkichi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 3,6 ming so'mga to'g'ri kelgan

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika
boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

*Mas'ul: B.Tajibekov
(71)230-82-15*